

**DRAMATIK OBRAZ, IJTIMOIIY DAVR VA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK
DIALEKTIKASI**

Xalimov Saloxiddin Samiyevich

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada dramatik obraz, ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi Edgar Allan Po hikoslari misolida tahlilga tortilgan. Badiiylik unsurlaridan puxta foydalana olish dramatik obrazlarni, tragik obrazlarni, ijtimoiy davr muammolarini falsafiy mushohada qilish dolzarb masalalarni echish yo‘lida o‘ziga xos yo‘l ekanligi kprsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiy mahorat, dramatik obraz, ijtimoiy davr, falsafiy mushohadakorlik dialektikasi, badiy unsurlar, novella, badiy mantiq.

Abstract. The article analyzes the dialectic of dramatic image, social period and philosophical observation on the example of Edgar Allan Poe’s stories. It has been shown that the ability to carefully use artistic elements is a unique way to solve the actual problems of the dramatic images, tragic images, and the problems of the social era in a philosophical way.

Keywords: artistic skill, dramatic image, social period, dialectic of philosophical observation, elements of art, novella, artistic logic.

Аннотация. В статье анализируется диалектика драматического образа, социального периода и философское наблюдение на примере рассказов Эдгара Аллана По. Показано, что умение грамотно использовать художественные элементы является уникальным способом философского решения актуальных проблем драматических образов, трагических образов и проблем социальной эпохи.

Ключевые слова: художественное мастерство, драматический образ, социальный период, диалектика философского наблюдения, элементы искусства, повесть, художественная логика.

Edgar Allan Poning adabiy salohiyati, notakror badiiy mahorati eng avvalo hikoya janridagi asarlarida namoyon bo‘lgan edi. Bunda adibga psixologik tahlil, mubolaga, majoz, intellektuallik, badiiy san’atlar, sirli-garoyiblik bilan bog‘liq san’atkorlik vositalari yaqindan yordam bergan. Bu kabi badiiylik unsurlaridan puxta foydalana olish dramatik obrazlarni, tragik obrazlarni, ijtimoiy davr muammolarini falsafiy mushohada qilish, dolzarb masalalarni echish yo‘lida eng ta’sirchanlik ahamiyatiga ega bo‘lgan.

E.Po badiiy asarlar orasida, jumladan, nasriy tur tarkibida hikoya janrining qulayligi, yozuvchi iste’dodini namoyish eta olish vositasi sifatida eng qulay ekanligini ta’kidlaganligi adabiy haqiqatga mos keladi. Chunki, hikoya ham she’r kabi tez, qisqa muddatda oqiladi. Ko‘zlangan g‘oya va badiiy joziba shunchalik tez ma’lum bo‘ladi. E.Po bu bilan hali XIX asrdayoq tiqilinch taraqqiyot muhitida qisqalik, mo‘jaz adabiy shald badiiy asar

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

fazilatlaridan biri ekanligini ta’kidlagan. Badiiy asardagi obrazlar va g’oyalar talqini o’quvchining hayot haqidagi taassurotlarini o’zgartirishi, ya’ni, dunyofarashini toblashi, qarashlarining, falsafiy mushohadalarining boyishiga ta’sir etishi esa badiiy asar mohiyatini yana bir qadar teran tushunish ahamiyatiga ega.

E.Po hikoyanavislik tizimida o’zi aytmoqchi, badiiy asar gultoji deb muhim qisqalikning go’zal namunalaridan biri - “Sukunat” novellasi alohida ajralib turadi. Iste’dodli lirik yozuvchi va nozikdid adabiyotshunos Mahkam Mahmudov mahorat bilan tarjima qilgan mazkur asar nasriy nazm maqomidagi ranggin tasviri, iblis va odam o’rtasidagi munosabatlar talqini bilan e’tiborni tortadi. Quloq sol, - dedi Iblis mehribonlik bilan qo’lini boshimga qoyib, - men senga Liviyadagi bir huvillagan o’lka haqida gapirib bermoqchiman. Zaxira daryosi sohillarida yastangan bu o’lkada orom ham, sukunat ham yo’q. Daryo suvi za’faron rangda, u dengizga qarab oqmaydi, ammo quyoshning alvon shafagida sarkash va asov mavjlanadi, tinimsiz po’rtanalari to’lg’anadi. Ikkala sohil boylab, botqoqli o’zanda haybatli suv lolagullari ayqash-uyqash bo’lib yotadi. Kimsasizlikdan xo’rsinayotganday, lolalar ranglar tolma bo’inlarini ko’tarib, bir-birlariga qarab, bosh chayqashadi. Ular eroti suvlarining shoviriga o’xshash allaqanday tushunksiz bir ohangda shivirlayotganday tuyuladi, elaselas xo’rsinishadi.”[1;189].

“Huvillagan o’lka” - mohiyatan la’natlangan makon ma’nosiga ega. Bunday

Liviyadagi huvillagan o’lkadagi oromsiz, sukunatsiz muhit misoli do’zax yoki do’zaxiy joy ma’nosini anglatganday bo’ladi. Boshdan-oyoq majoziy-ilohiy ruh bilan chulg’angan novella o’tkir hayajon, kuchli psixologik taassurot bilan mutolaa qilinadi. Daryo suvining za’faronligi va uning dengizga qarab oqmasligi - jamiyatlardagi turgunlik majozisi; buni barcha ashyoning jonsizligi, loqaydligi holatidan ham bilish mumkin. Suv lolagullarining ayqash-uyqash harakati, xorsinishi esa bunday tushkunlik va turgunlik taassurotini yanada kuchaytiradi. Ularni xo’rsinishga, behuda to’lg’anishga majbur etayotgan nima, qanday qora kuch bo’lishi mumkinligi oquvchini qiziqtirishi tabiiy. Bu Iblis qutqu solgan buzuk jamiyat, ezgulikdan ko’ra yovuzlik nafasi hukmron yurtning xarobatini, o’limga mahkum shum taqdirini anglatadi.

“Sukunat”dagi hikoyachi obraz, Iblis, Qora bulut, zaxira daryosi, Sukunat, Lolagullar, Oy, Ooyada o’tirgan yolg’iz inson, Sirtlon kabi hayotiy va majoziy obrazlar asosan dramatik va tragik obrazlar hisoblanadi. E.Po ko’p maqolalarida Amerikada san’atning, go’zallikning, ezgulikning, mehr-oqibatning qadri yo’qligi haqida mardona ravishda o’tkir tanqidiy fikrlarini bayon qilgan edi. “Sukunat” novellasi ana shu ma’naviyati past yurt manzarasining majoziy ruhdagi taassurotini beradi: “Qorong’i kecha edi, yomg’ir yog’ardi, yogayotganida yomg’ir edi, ammo daryoga tushganida qonga aylanardi. Bo’yodor suv lolalari o’chib yotgan jarlikda turardim, boshimga qonli yomg’ir yogardi, gullar ulug’vor xarobotdan xo’rsinib, bir-birlariga qarab, bosh chayqashadi.”

Birdaniga harir tuman orasidan qonga belanganday alvon oy chiqdi. Oy yorugida sohildagi haybatli qora qoya ko’zimga tashlanadi. Qoya rangsiz, jonsiz, yuksak edi. Qoya rangsiz edi. Ooyaga allaqanday bitik o’yib yozilgandi. Suv lolalari chayqalib turgan

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

jarlikdan suzib borib, tosh bitikni o‘qish maqsadida sohilga yaqinlashdim. Lekin yozuvni o‘qiyolmadim. Yana jarlikka qaytdim, oy bag‘ri battar qonga belandi, men yana qoyaga qaradim va undagi yozuvni oqidim: XAROBOT.” [2; 190]

Bu o‘rinda deyarli barcha asarlarda osoyishtalik, go‘zallik, xotirjamlik ramzi sifatida talqin etilgan sukunatga nisbatan antipatiya ruhidagi mazmun dastlab ajablantirishi ham mumkin. Ammo, yozuvchining bu talqindan ko‘zlagan maqsad-muddaosi har holda ijobiy xarakter tashishini tushunish ham talab etiladi. Hikoyachi “Ana shunda men qahrlanib va borliqni, “Sukunatga bot!” deb la‘natladim” deya, amirona da‘vat qilar ekan, bu bilan dunyoni alg‘ovdalgovlikka chulgagan bo‘ronlarni, chaqmoqlarni, qon yomg‘irlarni, ogir va qora bulutlarni va umuman do‘zaxiy vahmkorliklarni sukunatning osoyishta go‘zalligi bilan tinchitganligini aytmoqda. Ya‘ni, shu tariqa do‘zaxiylikni la‘natlamoqda. Hayhotdek hududsiz sahroda g‘ing degan tovushning eshitilmay qolganligi - bu alg‘ov-dalg‘ov vahmkor sharoitning barham topib, borlikni tinchlik-osudalik sukunati qoplaganligining alomatidir. O‘tkir mubolagadorlik maqomida talqin etilgan romantik hodisalarning

psixologik jozibasi bilan e‘tiborni tortadigan “Sukunat” hikoyasida xarobotga Sukunatning qarama-qarshi (kontrast) qo‘yilishi yozuvchi mansub ijtimoiy muhitda hukmron yovuzlik, notenglik, zulm ildiziga bolta urishga da‘vat hisoblanadi. Salohiyatli yozuvchining bunday yuksak romantik-majoziy ruhdagi hikoyasi inson tafakkuriga kuch, joziba va o‘tkir tanqidiy ko‘lam bag‘ishlaydi. Ijtimoiy borliq haqidagi tanqidiy tafakkur esa bu ijobiy sharoit yaratishiga nisbatan muhim qadam sanaladi. Edgar Poning hikoya janri haqidagi nazariy fikrlariga o‘z asarlariga xos shakliiy va goyaviy-majoziy fazilatlar ham dalil bo‘ladi. “Mohir adib hikoya yozdi. Agar u dono bo‘lsa, fikrlarni voqealarga tiqishtirishga intilmaydi; o‘zi erishishni istagan yagona effektini puxta oylab ko‘rib, songra voqealarni to‘qiydi va o‘sha voqealarni oylangan effektini royobga chiqarishga ko‘ngildagidek qulaylik yaratadigan tarzda uygunlashtiradi. agar birinchi jumlayoq ana shu effekt sari boshlamasa, demak, yozuvchi avvalboshdanoq muvaffaqiyatsizlikka uchragan. butun asarda ko‘zlangan maqsadga bevosita yoki bavoisita olib bormaydigan birorta so‘z bo‘lmasligi darkor. Pirovardida, o‘quv bilan idrok etilib, imkon qadar to‘la qoniqish hissi uyg otadigan manzara ana shunday paxtalik va mohirlik bilan yaratiladi. Hikoyaning goyasi to‘la ifodalanadi, chunki me‘yorini hech narsa buzmaydi”. [1;173]

“Mohir adib”ning fikrlarini voqealarga tiqishtirishga intilmasligi - bu hikoyaning goyaviy-badiiy jihatdan anchayin ixcham, shu barobarda ta’sirchan bo‘lishi lozimligi haqidagi maqsadni bildiradi. E.Poning o‘z tajribasidan ham kelib chiqib, aytishicha, ana shunday ixchamlik asar me‘yorining mo‘‘tadil bo‘lishini, ifodalamoqchi bo‘lgan goyasining to‘la in‘ikosini topishini ta‘minlaydi. Ixchamlik, tasvir-talqinlarning siqiqiligi hikoyaning intellektuallik mohiyatini, tafakkur salmogini oshirishi adibning “Sukunat” va yana shunday mo‘‘jaz hikoyalarida, o‘zi aytganiday, ixcham novellalarida ham o‘z tasdiqigini topgan. hikoyaning hatto she‘rdan ham ustunlik jihatlari bor, dedik. bosh g‘oyani – Go‘zallik g‘oyasini ifodalashda shoirga ritm sezilarli yordam beradi, ammo fikmi tafsilotlari bilan rivojlantirishda ritmning sun‘iyligi g‘ov bo‘ladi. icha va yuksak darajada maqsadni tashkil

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Iyun, 2026-yil

qiladi. Eng yaxshi hikoyalardan ayrimlari mantiqiy mulohazalardan iborat. Shu tariqa, bu turdagi asarlar sohasi Ruhning baland cho'qqilarida joylashmagan bo'lsa ham she'riy sohaga qaraganda kengroq maydonni, qir-u tepaliklarni ishgol etgan. Bu joylardan terib olinadigan mevalar u qadar laziz bo'lmasa-da, mo'l-ko'l va ko'pchilikning didiga ko'proq mosdir".[2; 173]

Hikoya "fikrni tafsilotlari bilan rivojlantirishda" qulay vosita, ya'ni, tafakkur, muloqot, falsafiy mushohada maydoni ekanligini ta'kidlash bilan E.Po hikoyaning intellektuallik mohiyatini ta'kidlashi ma'lumdir. Yana u hikoyalarning "mantiqiy mulohazalar" yuritish vositasi ekanligini alohida uqtirishi ham hikoya janri "effekti"ning muhim jihatlarini belgilaydi.

Edgar Allan Po nasri dramatik obrazlarga nihoyatda boy, uning asarlarida ijtimoiy muhit va shaxs munosabatlari, ziddiyatlar, kurashlari, yoqotish va topishlar hayotda boricha, kuchli psixologizm vositasida tasvirlanadi. Aytaylik, "Yurak gupuri"dagi chol, "Maxluq" hikoyasidagi majoziy Vabo tismoli- Maxluq, "Qizil ajal niqobi"da shahzoda Prospero, "Vabo qiroli" majoziy hikoyasida dengizchilar Daroz va uning oshnasi Xyu Qatron, "Mashhurlikning intihosi"da Robert Jons, "Qora mushuk"da qotil er kabi dramatik obrazlar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabat va to'qnashuvlarida davmng ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muammolari bor bo'y-basti bilan badiiy in'ikos etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. По Э.А. Сукунат. По Э.А. Буюк Темур. - Т.:Янги аср авлоди, 2016.189-бет.
2. По Э.А. Хикоянинг эффекти. По Э.А. Буюк Темур китобида. - Т. :Янги аср авлоди, 2016.173-бет.
3. Borxes X.L. Sarguzasht janr. Po E.A. Buyuk Temur. T.:Yangi asr avlodi, 2016, 276-bet.
4. E.A.Po Buyuk Temur. T.: Yangi asr avlodi, 2016, 44-bet.
5. Козлова Д.В. Художественно-философские потоки и формы гротеска в новеллистике Э.А.По. Автореферат дисс. на соиск. учн.степени канд.фил.наук. - Нижний Новгород, 1988, стр. 12
6. G'aniev I., Afoqova N. Abdulla Orif falsafasi. T.: Muharrir nashriyoti, 2021, 221-bet.